



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## TIL FANLAR CHORRAHASIDA

**Abdiyeva Marjona**

**ANNOTATSIYA:** *Til inson jamiyatining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biridir. U inson tafakkuri, madaniyati va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi hamda rivojlanadi. Shu sababli har bir fan til bilan uyg'unlashgan holda vujudga keladi. Ushbu maqolada tilning asosiy mohiyati, uning fanlar bilan aloqasi haqida atroflicha fikr yuritiladi hamda tahlili yoritiladi.*

### **KALIT SO'ZLAR**

*til, psixolingvistika, tafakkur, nutq, metodika, semiotika, etimologiya, matematika.*

**KIRISH:** Til asrlar davomida o'rganilib kelinayotgan eng muhim nutqiy aloqa vositasidir. Aloqa boshqa vositalar bilan ham o'rnatilishi mumkin. Morze alifbosi, imo-ishora, turli ma'noni anglatuvchi tovushlar chiqarish orqali va boshqalar. Ammo boshqa aloqa vositalari tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Shuning uchun til nafaqat aloqa vositalari, balki fanlar doirasida ham yetakchi o'rinni egallay oladi. Chunki har bir fan til bilan bog'liq. Masalan, tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Ma'lumki, tafakkurga oid masalalar mantiq ilmiga xos mavzulardandir. Shu sababli mantiqchilar tafakkur qonuniyati asoslari bilan birgalikda fikrning tilda aks etishini o'rganmasliklari mumkin emas. Qolaversa, til va tafakkur bir-birini to'ldiruvchi va chambarchas bog'langan tushunchalardir. Mantiq tilni ana shu yo'nalishda o'rganadi [M. Irisqulov].

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli ba'zi bir adabiyotlarda tilni sotsiologlar ham atroflicha o'rganishi ta'kidlab o'tilgan. Sotsiologiya til va jamiyat o'rtasidagi aloqani, muammolarni hamda uning bog'liqlik jihatlarini o'rganuvchi fandır. Ma'lumki, til ijtimoiy kelib chiqishi tarixiga ega bo'lgan tushuncha. Shu jihatdan tarix ilmi orqali o'rganiladigan ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. Shuning uchun tarixningda ildizi tilga borib taqaladi. Qolaversa, til barcha fanlar uchun asosiy poydevori sanaladi. Jumladan, matematika, jug'rofiya, etimologiya, fizika, psixologiya va boshqa fanlar tilda aks etadi. Masalan tilda belgilar sistemasi bo'lgani kabi matematika fanida formulalar tizimi mavjud yoki fizika fanining asoschilaridan biri Nyuton ham "boshiga olma tushib ketib" tafakkur etishi hamda fizik qonunlarning yaratilishi ham til bilan bog'liq. Sababi tilsiz tafakkur, tafakkursiz til mukammal bola olmasligi ko'pgina olimlarning fikrlaridan ham ma'lum. Demak, fizika fanining o'zini ham til va tafakkur tashkil etadi. Bir-birini to'ldirib turuvchi til va tafakkur tushunchasi muhim rol o'ynaydigan sohalardan yana biri bu psixologiya. "Jaziramadagi odamlar" asarida ta'bir etilganidek "odam ko'nglining injenerlari" o'z fikrlarini yetkazib berish uchun ham bevosita til muhim rol o'ynaydi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bundan tashqari, ba’zi manbalarda til faqat tilshunoslik emas, balki boshqa fanlar uchun ham o‘rganish sohasi sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. O‘rganish sohasini farqlab olish nuqtai nazaridan kelib chiqsak, tilshunoslik ikki turga: mikrolingvistika va makrolingvistikaga ajratiladi. Mikrolingvistika bu tilning faqat ichki, ya’ni grammatik, fonetik, leksik sathlari tuzilishini, makrolingvistika esa uni boshqa fanlar bilan aloqaqa kirishish tarzini o‘rganadi.

Ma’lumki, til va nutq ko‘pgina olimlarning fikricha o‘zaro uzviylik va qarama-qarshilik asosiga qurilgan faoliyatdir. Tilda shakllangan fikrlar nutqqa ko‘chadi va nutqiy sathlarni ritorika to‘laqonli o‘rganadi. Chunki ritorika bu notiqlik san’ati, chiroyli va jozibali nutq yaratish uchun mo‘ljallangan fan. Qolaversa, bugungi kunda til bilan bog‘liq zamonaviy fanlar ham borki, ular tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki texnologiya, jamiyat, madaniyat va tafakkur bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Sotsiolingvistika, psixolingvistika, semiotika, grammatika, kompyuter lingvistikasi shular jumlasidandir. Tilning fanlar bilan aloqasi:

Til va sotsiologiya:

Til jamiyat a’zolari o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida sotsiologiya bilan ham uzviy bog‘liq. Shuningdek sotsiolingvistika tilning nafaqat ijtimoiy tabiatini, balki turli ijtimoiy qatlamlarda, yosh, jins, kasb va hudud bo‘yicha farqlanishini o‘rganadi. Masalan, shahar va qishloq shevalari, yoshlar tili, kasbiy jargonlar va tushunchalar — bular sotsiolingvistik hodisalardir

Til va madaniyat:

Har bir xalqning madaniyati tilida o‘z aksini topadi. Til millatning madaniy xotirasi, urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashini ifodalaydi. Shu sababli tilshunoslik bilan madaniyatshunoslikning bir-biriga bog‘langan nuqtasi etnolingvistika deb ataladi. Etnolingvistika tildagi milliy xususiyatlar, ramzlar, xalqona iboralar orqali madaniyatni o‘rganadi hamda boyitadi.

Xususan, V. fon Gumboldt tilshunoslik fanining muammolarini, vazifalarini belgilab berishga harakat qilganida uni tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, yil murakkab va bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan sifat hamda xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan hodisadir. Shuning uchun ham tilni ilmiy o‘rganishda, uning asl mohiyatini anglab yetishda qarama-qarshilik metodini qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi [X. Xayrullayev]. Til murakkab hodisa bo‘lganligi uchun ham barcha fanlar doirasida o‘rganiladi.

**XULOSA:** Til fanlar chorrahasida turgan murakkab va ko‘p qirrali ijtimoi hodisadir. U nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, mantiq, madaniyat, tarix va ijtimoiy hayotning ham ifodasidir. Tilning turli fanlar bilan uyg‘un holda o‘rganishilishi insoniyatning ma’naviy olamini chuqurroq anglash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va milliy o‘zlikni saqlashga xizmat qiladi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.X.Xayrullayev,M.Ibragimova,"Tilshunoslik asoslari","Samarqand davlat chet tillari instituti" nashriyoti, Samarqand - 2024.
- 2.O'lmas Sharipova,Ibrohim Yo'ldoshev,"Tilshunoslik asoslari",Toshkent - 2006.
- 3.Z.Xolmanova,"Tilshunoslikka kirish",Toshkent - 2007.
- 4.M.Irisqulov,"Tilshunoslikka kirish","O'qituvchi" nashriyoti - 1992.

